

Haqiqat va bid'at

“Gumanitar fanlar” kafedrası professor-o'qituvchilari Azimov.X, Alimuxamedova N, Abduraxmonova I, Normatov O, Botirova X boshchiligida 15.-mart kuni 2 Talabalar turar joyida “Aqidada adashmaylik. Diniy ekstremizm va terrorizm tarixi va ildizlari” mavzusida davra suhbatı o'tkazishdi. Davra suhbatida, talabalarga islomiy guruhlarining tarixi va bugungi kundagi faoliyatlari, ularning jamiyat va insoniyat inqiroziga ne chog'li salbiy ta'sir etayotganlarini isbotlari bilan tushuntirishdi

Buning sababi sifatida o'qituvchilar tomonidan, islom dinida chuqur (g'uluv) ketish yoki yengil qarash ekanligi, islomiy bilimlarni soha mutaxassisleri emas, “ko'cha olimlaridan” o'rganayotganliklari, yoki moddiy manfaat ekanligi bilan izohlashdi. Yoshlar qanday qilib buzuq aqidalarga ergashib qolayotganlari, to'g'ri e'tiqod tanlay olishlari uchun qanday yo'l tutishlari, kimlardan va qanday adabiyotlardan foydalanish kerakligi aytib o'tildi. Shu maqsadda gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Abduraxmonova I. ko'chma kutubxona tashkil qildi. Yoshlar bilib bilmay keraksiz va zararlı oqimlar adabiyotlarini qo'llariga olib qo'yishlarining oldini olish maqsadida, talabalarga bugungi kunda, O'zbekiston Musulmonlari idorasi, diniy qo'mita ruxsati bilan chop etilayotgan kutubxonalardan topish mumkin bulgan adabiyotlar bilan tanishtirdi. Bu adabiyotlardan talabalar o'zlarining mazhablari, fiqh ilmi, kalom, islom dinining farzlari, gunoh, xalol va harom, ijtimoiy odoblar kabi diniy bilimlarga ega bo'lishlari mumkinligi aytildi. Talabalar bu adabiyotlarga katta qiziqish bilan qaradilar va ro'yxatlarini yozib oldilar. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat etishdi. O'qituvchilar talabalarining savollariga atroflicha javob berishdi. Davra suhbatı o'ta qizg'in ruhda o'tdi.



Tarbiyachi-pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov